O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Xurmoni sotish va uning sifatini nazorat qilish standarti

(DDP-08:2024, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #X20IHDC1FJ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 25 fevraldagi 6/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart DDP-08:2024 “Standart concerning the marketing and commercial quality control of dates” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #X20IHDC1FJ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Muqaddima

Qishloq xo‘jaligi sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruhi

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (YEIK) qishloq xo‘jaligi sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruhining tijorat standartlari xalqaro savdoni rivojlantirish, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, ishlab chiqaruvchilarning daromadliligini oshirish va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. YEIK standartlaridan hukumat tashkilotlari, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, import va eksport qiluvchilar, shuningdek boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadi. Ular yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesma gullar, tuxum va tuxum mahsulotlari kabi qishloq xo‘jaligi tovarlarining keng doirasini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo har qanday davlat Ishchi guruh faoliyatida teng huquqli asosda ishtirok etishi mumkin. YEIK qishloq xo‘jaligi standartlari haqida qo‘shimcha ma’lumotni quyidagi veb-saytimizdan olishingiz mumkin: http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html.

Xurmolar uchun standartning ushbu nashri ECE/CTCS/WP.7/2024/14 hujjati asosida tayyorlangan bo‘lib, Ishchi guruh tomonidan o‘zining yetmish to‘qqizinchi sessiyasida ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #X20IHDC1FJ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

XURMONI[1] SOTISH VA UNING SIFATINI NAZORAT QILISH STANDARTI

СТАНДАРТ, КАСАЮЩИЙСЯ СБЫТА И КОНТРОЛЯ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА ФИНИКОВ

STANDART CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF DATES

Amalga kiritish sanasi -25 mart 2026 y.

I Mahsulotni aniqlash

Ushbu standart *Phoenix dactylifera L.* turiga mansub madaniy sinflardan olingan, urug‘li yoki urug‘siz, tabiiy holatdagi yoki yuvilgan, qayta namlantirilgan (regidratatsiya qilingan), qoplama bilan ishlov berilgan va/yoki pasterizatsiya qilingan, bevosita inson iste’moli uchun mo‘ljallangan xurmo (finiki)larga nisbatan tatbiq etiladi. Mazkur standart sanoat qayta ishlash uchun mo‘ljallangan xurmo mahsulotlariga nisbatan qo‘llanilmaydi.

II Sifatga oid talablar

Ushbu standartning maqsadi xurmolarni tayyorlash va qadoqlashdan keyingi sifat talablarini belgilashdan iborat.

Eksport yoki jo‘natishdan keyingi bosqichlarda standart qo‘llanilganda, uning talablariga rioya etilishi uchun mahsulot egasi yoki sotuvchisi javobgar hisoblanadi. Mahsulot faqat ushbu standartga muvofiq holda sotilishi yoki realizatsiya qilinishi mumkin.

A. Minimal talablar[2]

Barcha sinflardagi xurmolar, belgilangan qo’yimlar doirasida, oddiy ko‘z bilan (zarur hollarda ko‘rish o‘tkirligini 20/20[3] darajagacha tuzatuvchi vositalar yordamida) baholanganda quyidagi talablarga javob berishi lozim:

Xurmolar:

- shikastlanmagan bo‘lishi kerak; ezilgan, yirtilgan, po‘sti yorilib urug‘i ochilib qolgan va tashqi ko‘rinishini sezilarli yomonlashtiradigan mevalarga yo‘l qo‘yilmaydi;

---

[1] Ushbu standart quritilgan mevaning o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lgan xurmolarga bag‘ishlangan. Ular xurmo daraxtiga yopishgan holda tabiiy ravishda quritiladi va "tamar" bosqichida (mevalarning fiziologik o‘sishining so‘nggi bosqichi) bo‘lishi lozim, ya’ni yumshoq va to‘q jigarrang tusda bo‘lishi kerak.

[2] Atamalar va nuqsonlarning ta’riflari standartlarning namusinfiy shaklining "Quruq (po‘choqli yong‘oqlar va yong‘oq mag‘izlari) va quritilgan mahsulotlar standartlari uchun tavsiya etilgan atamalar va nuqsonlarning ta’riflari" deb nomlangan III ilovasida keltirilgan https://unece.org/trade/wp7/DDPStandards.

[3] Nuqsonlarni baholashda lupa, binokulyar optika yoki boshqa kattalashtiruvchi asboblar qo‘llanilmaydi.

STANDARTLAR INSTITUTI #X20IHDC1FJ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- sog‘lom bo‘lishi kerak; chirigan yoki iste’molga yaroqsiz holga kelgan mahsulotlarga ruxsat etilmaydi;
- toza, amalda ko‘rinadigan begona aralashmalarsiz (qoplama tarkibiy qismlari bundan mustasno);
- rivojlanish bosqichidan qat’i nazar tirik hasharot-zararkunandalarsiz;
- zararkunandalar yetkazgan ko‘rinadigan shikastlarsiz, shu jumladan o‘lik hasharotlar, kanalar, ularning qoldiqlari yoki ajratmalarsiz;
- oddiy ko‘z bilan ko‘rinadigan mog‘or tolalarisiz;
- fermentatsiya belgilarisiz;
- yetilmagan mevalarsiz, ya’ni vazni kam, rivojlanishi to‘xtagan yoki aniq rezinasimon tuzilishga ega bo‘lmagan;
- changlanmagan mevalarsiz, ya’ni o‘sishi to‘xtagan, yetilmagan mevalarga xos belgilarga ega va urug‘siz;
- yuzaki nuqsonlarsiz, jumladan chandiqlar, rang o‘zgarishi, quyoshda kuyish, “qora burunlik” (meva uchining qorayishi va keng yuzaki yorilishlar) yoki yon dog‘lanish (meva ichiga chuqur kirib boruvchi juda to‘q dog‘) va shunga o‘xshash nuqsonlar, agar zararlangan maydon diametri kamida 7 mm bo‘lgan doiraga teng bo‘lsa;
- me’yordan ortiq yuzaki namliksiz;
- begona hid va/yoki ta’msiz bo‘lishi kerak.

Xurmolarning holati shunday bo‘lishi kerakki, ular:

- tashish, ortish va tushirish jarayonlariga bardosh bera olsin;
- belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borsin.

B. Namlik miqdori[4]

Xurmo sinflarida namlik miqdori, asosan saxaroza saqlaydigan turlar uchun 26,0 foizdan, inversiya qilingan shakar[5] saqlaydigan turlar uchun esa 30,0 foizdan oshmasligi lozim. Biroq,

"Deglet Nur" sinfi xurmosining tabiiy holatidagi maksimal namlik miqdori 30,0 foizni tashkil etadi.

C. Tasniflash

IV-bo‘limda ko‘rsatilgan nuqsonlar bo‘yicha qo’yimlarga muvofiq holda xurmolar quyidagi uchta sinfga bo‘linadi:

- oliy sinf;
- birinchi sinf;
- ikkinchi sinf.

Qo’yim nuqsonlar mahsulotning umumiy tashqi ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanish qobiliyatiga va qadoqdagi tovar ko‘rinishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi kerak.

---

[4] Namlik miqdori BMT YEIKning quruq va quritilgan mahsulotlar uchun standartlarning namusinfiy shakliga I ilovada ko‘rsatilgan 1 va/yoki 2-usul yordamida aniqlanadi. Nizolar yuzaga kelganda laboratoriya etalon usuli qo‘llaniladi.

[5] Asosiy shakar tarkibiy qismi xususiyatiga ko‘ra tasniflangan sinflarning to‘liq bo‘lmagan ro‘yxati ushbu standartga ilovada keltirilgan.

STANDARTLAR INSTITUTI #X20IHDC1FJ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

III. Kalibrlashga oid talablar

Kalibr bitta mevaning vazni bo‘yicha belgilanadi.

Xurmoning minimal vazni — 4,0 g.

IV. Qo’yimlar

Savdoning barcha bosqichlarida har bir to‘plamda mazkur sort uchun belgilangan minimal sifat va kalibr talablariga to‘liq javob bermaydigan ma’lum miqdordagi mahsulotga ruxsat etiladi.

Yo‘l qo‘yiladigan nuqson	*Miqdor yoki vazn bo‘yicha nuqsonli mahsulotning qo’yim chegaralari va foiz ulushi*		
	Exstra	*Birinchi sinf*	*Ikkinchi sinf*
a) Minimal talablarga mos kelmaydigan mahsulot uchun yo‘l qo‘yiladigan chegaralar,	5	10	20
ulardan ko‘pi bilan:			
yetilmagan yoki changlanmagan mevalar	1	2	4
achigan, chirigan yoki mog‘or bosgan mevalar	0	1	1
fermentatsiyaga uchragan yoki zararkunandalar a, b, c bilan zararlangan, chirish yoki buzilish izlari bo‘lgan mahsulot	3	8	12
Yuzaki nuqsonlari, rangi o‘zgargan qismlari yoki "qora burun" belgilari mavjud, quyosh ta’sirida kuygan, eti yorilgan mevalar	3	5	7
tirik zararkunanda hasharotlar bilan ifloslangan mahsulot	0	0	0
b) Minimal o‘lchamdan kichik bo‘lgan mahsulot uchun kalibr bo‘yicha qo’yim chetlanishlar (kalibrlash amalga oshirilganda), mahsulotning xususiyatlariga qarab, jami miqdori	10	10	10
c) Boshqa nuqsonlar uchun qo’yim og‘ishlar			
Danaksiz xurmolar orasidagi danakli xurmolar (soni bo‘yicha)	2	2	2
begona qo‘shimchalar (organik kelib chiqishli), masalan, bo‘sh po‘choq, po‘choq parchalari, meva po‘sti qoldiqlari, barglar, chang (og‘irligi bo‘yicha) [va]			
begona moddalar (kelib chiqishi noorganik), masalan, toshlar, metall va shisha (og‘irligi bo‘yicha)	1	1	1
ko‘rsatib o‘tilganlardan tashqari boshqa sinflarga yoki tijorat turlariga mansub bo‘lgan xurmolar - mahsulotning xususiyatlariga qarab	10	10	10

[a] Polsha va Buyuk Britaniyaning avvalgi ruxsatlarni saqlab qolishni istagan istisnolari: oliy sinf - 2%; birinchi sinf - 4%; ikkinchi sinf - 6%.

[b] Shveysariya o‘z milliy qonunchiligini qo‘llagan taqdirda, zararkunandalar tomonidan zararlangan mahsulot uchun ruxsatnoma 6 foizdan oshmasligi kerak.

[c] Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘z milliy qonunchiligini qo‘llagan taqdirda, zararkunandalar tomonidan zararlangan mahsulot uchun ruxsatnoma 5 foizdan oshmasligi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #X20IHDC1FJ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

V. Tovar ko‘rinishiga oid talablar

A. Bir xillik

Har bir qadoq[6] tarkibi kelib chiqishi, sifati va sinfi (ko‘rsatilgan bo‘lsa) bo‘yicha **bir xil** bo‘lishi lozim. Qadoqning ko‘rinadigan qismi butun qadoq mazmuniga mos kelishi kerak.

B. Qadoqlash

Xurmolar mahsulotni tegishli darajada himoya qilishni ta’minlaydigan tarzda qadoqlanishi kerak.

Qadoqning ichida ishlatiladigan materiallar toza va mahsulotga har qanday tashqi yoki ichki shikast yetkazilishining oldini oladigan sifatga ega bo‘lishi lozim. Materiallardan, xususan, savdo tavsiflari tushirilgan qog‘oz yoki shtamplardan foydalanishga, agar bosma yoki markirovka zaharli bo‘lmagan bo‘yoq yoki yelim bilan bajarilgan bo‘lsa, ruxsat etiladi.

Qadoqlar, “IV. Qo’yim og‘ishlar bo‘yicha qoidalar” bo‘limidagi toleranslar jadvaliga muvofiq, barcha turdagi begona va qo‘shimcha moddalardan (bezak materiallari: shoxchalar, poyalar, plastik sanchqilar va h.k. bundan mustasno) amalda xoli bo‘lishi kerak.

C. Tovar ko‘rinishi

Xurmolar qoplarda yoki qattiq idishlarda taqdim etilishi shart. Har bir o‘ramning ichidagi barcha savdo qadoqlari bir xil vaznda bo‘lishi lozim.

Xurmolarni quyidagicha taqdim etish mumkin:

- shingil holatida (asosan meva tabiiy ravishda birikkan o‘simta va poyachalardan iborat;
- shoxchalarda (o‘zakdan ajratilgan va meva tabiiy ravishda birikkan kichik shoxchalar);
- alohida mevalarga ajratilgan holda, qatlam-qatlam qilib terilgan yoki qadoq ichida erkin holatda.

Sotuvga keladigan shoxchalarning uzunligi, ular shingillarda yoki asosiy poyadan ajratilgan holda bo‘lishidan qat’i nazar, kamida 10 cm bo‘lishi kerak, bunda har 10 sm uzunlikda o‘rtacha to‘rtta meva joylashgan bo‘lishi lozim.

Xurmolar shoxchalarda yoki shingillarda sotuvga chiqarilganda, ko‘pi bilan 10% gacha ajralgan mevalar bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

Shoxchalarning uchlari toza kesilgan bo‘lishi shart.

VI. Tamg‘alash qoidalari

Har bir qadoqda[7] quyidagi ma’lumotlar aniq va o‘chmaydigan shrift bilan yozilishi shart, bular bir tomonga jamlanib, tashqi tomondan ko‘rinadigan bo‘lishi lozim:

---

[6] "Qadoqlash" atamasining ta’rifi BMT YEIKning quruq va quritilgan mahsulotlar uchun standartlarning Namusinfiy shakliga ilova qilingan III-bo‘limda keltirilgan.

[7] Markirovkalash to‘g‘risidagi ushbu qoidalar o‘ramlarda mavjud bo‘lgan iste’mol o‘ramlariga tatbiq etilmaydi.

STANDARTLAR INSTITUTI #X20IHDC1FJ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

A. Identifikatsiya

Qadoqlovchi va/yoki yuk jo‘natuvchi:

nomi va jismoniy manzili (masalan, ko‘cha/shahar/tuman/pochta indeksi va mamlakat, agar u kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa) yoki vakolatli milliy organ[8] tomonidan rasman tan olingan kod belgisi, agar bunday tizimni qo‘llaydigan mamlakat BMT YEIKning Kod belgilari ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lsa.

B. Mahsulot tavsifi

• Agar tarkibi tashqaridan ko‘rinmasa, "Xurmo" deb belgilanadi;
• Sinfi va/yoki tijorat turining nomi (ixtiyoriy);
• Tegishli hollarda "boshli" yoki "shoxchali" deb ko‘rsatiladi;
• Tegishli hollarda "danaksiz" deb belgilanadi.

C. Mahsulotning kelib chiqishi

• Kelib chiqish[9] mamlakati va, ixtiyoriy ravishda, yetishtirish hududi yoki milliy, mintaqaviy yoki mahalliy nomi.

D. Tovar xususiyatlari

• sinf;
• hosil yig‘ib olingan yil (ixtiyoriy);
• sana ko‘rsatilgan "yaroqlilik muddati" (ixtiyoriy).

E. Nazorat haqidagi rasmiy belgi (ixtiyoriy)

1987-yilda qabul qilingan.
So‘nggi marta 2024-yilda qayta ko‘rib chiqilgan.
2022-yilgi Standartlarning namusinfiy shakliga muvofiqlashtirilib, yangilangan.

_____

[8] Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligiga ko‘ra, nom va manzilni aniq ko‘rsatish talab etiladi.

Biroq, kod belgisidan foydalanilganda, "qadoqlovchi va/yoki yuk jo‘natuvchi" yozuvi (yoki tegishli qisqartma) kod belgisining bevosita yaqiniga qo‘yilishi lozim. Bunda kod belgisidan oldin, agar u kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa, tan oluvchi mamlakatning ISO 3166 standartida belgilangan harfli kodi ko‘rsatilishi shart.

[9] To‘liq yoki odatda qo‘llaniladigan nom ko‘rsatilishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #X20IHDC1FJ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Ilova

Tarkibida qamish shakari va invert shakar bo‘lgan xurmo sinflarining to‘liq bo‘lmagan ro‘yxati

A. Tarkibida saxaroza mavjud bo‘lgan turlari

Tarkibida asosan saxaroza bo‘lgan sinflar, shu jumladan:

Sinf nomi
Deglet Nur
Beyd qatlami

B. Tarkibida invert shakar bo‘lgan sinflar

Tarkibida asosan invert shakar (glyukoza va fruktoza) bo‘lgan sinflar, shu jumladan:

Sinf nomi
Barzi
Sayidiy
Xadraviy
Halloviy
Zaxdi
Sayir
Amri
Deri
Alig
Majhul
Huet Alig
Kent

STANDARTLAR INSTITUTI #X20IHDC1FJ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI